

Fevral, 2025-Yil

IMOM BUXORIYNING “AL-JOME’ AS SAHIH” ILMIY AHAMIYATI

Haqqulov Mehridin Yunusovich

Osiyo xalqaro universiteti “Tarix va filologiya” kafedrası o‘qituvchisi

mexriddinhaqqulov@gmail.com

Sadulloyeva Moxinur Sadullo qizi

Osiyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy fanlar va texnika” fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish
yo‘nalishi 9-FT-(I)-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14908724>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as Sahih” kitobidagi qarashlari va g‘oyalari, uning bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, Qur’oni Karim Islom dasturi, Islom shariati, hukmlari va odoblarining birinchi manbai ekanligi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari esa Islom shariatining Qur’ondan keyingi ikkinchi asl manbai hisoblanishi; hadis tushunchasi, mazmun mohiyati, Imom al-Buxoriy to‘plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta’limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasligi, balki hadislarning jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go‘zallik tuyg‘ularini mujassamlashtirishi, yosh avlodni insoniylik fazilatlarini ruhida tarbiyalash to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Hadis, ma’naviy me’ros, islom dini, muhaddis, Qur’oni Karim, Sahih al-Buxoriy, odob-axloq.

Abstract. This article discusses the views of ideas of Imam al-Bukhari in the book “Al-Jome’ as-Sahih” and its importance for today. At the same time, the main sources for these issues are the Koran, Sharia and the ethics of Islam, followed by hadiths, which are narratives about the life and deeds of the Prophet. It is noted that, the hadiths included by Imam al-Bukhari in his collections are not limited only to the general provisions of the Islamic faith, they are of global importance, since they contain certain views on humanism, education of love for the Motherland, virtue and a sense of beauty in young people, the development of personal traits in them.

Keywords: Hadith, spiritual heritage, Islam, religion, muhaddith, Koran, Sahih al-Bukhari, moral.

Аннотация. При этом первоисточником по данным вопросам являются Коран, шариат и этика ислама, за которыми следуют хадисы, представляющие собой предания о жизни и деяниях Пророка. Отмечается, что хадисы, включенные Имамом аль-Бухари в его сборники, не ограничиваются лишь общими положениями исламского вероучения,

Fevral, 2025-Yil

имеют общемировое значение, поскольку в них присутствуют определенные взгляды по вопросам гуманистического характера, воспитании в молодых людях любви к Родине, добродетели и чувства прекрасного, развитию в них личностных качеств.

Ключевые слова: Хадис, духовное наследие, ислам, религия, мухаддис, Коран, Сахих аль-Бухари, мораль.

Kirish. Muhaddislar sultoni bo'lgan Imom Buxoriy hayoti va ma'naviy merosini keng tadqiq etish yuzasidan nafaqat yurtimizda, balki butun musulmonlar olamida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imom Buxoriyning hayoti va faoliyati, u meros qoldirgan shoh asarlar davrlar osha axloqiy va huquqiy hikmatlari ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'on karimdan keying muqaddas kitob hisoblangan "Sahih ul-Buxoriy" ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan."

Islom dinining asl mazmun-mohiyatini teran anglashda ijtimoiy axloqiy masalalarga targ'ib etishda, yoshlar tarbiyasini milliy va diniy qadriyatlar asosida olib borilishida Imom Buxoriy merosining ahamiyati katta. Islom dinining tom ma'noda komilikka chorlaydigan, insoniy fazilatlarga targ'ib qiladigan, botil mafkuralardan saqlaydigan din to'g'risida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev shunday fikrni keltirib o'tdilar: "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Bu muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz... Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi.

Ma'lumki, Payg'ambarimiz hadislarini to'plash, ularning sahihlarini (to'g'rilarini, ishonchlilarini) ajratib, Qur'oni Karim oyatlari bilan isbotlash borasida Movarounnahr va Xuroson olimlarining hissalarini benihoyat katta bo'lgan. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asari ("Sahih al-Buxoriy" deb ham ataladi) jumlai jahonda mashhur bo'lgan bebaho yozma yodgorlikdir. Chunonchi, bu mo'tabar asar haqli ravishda Islom dini ta'limotida Allohning kalomi Qur'oni Karimdan keying asosiy manba hisoblanadi.

Imom al-Buxoriyning hadis ilmini bugungi kunda tadbiq etish juda ham ahamiyatlidir. Bugungi kundan arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan hadislar orqali barcha yurtdoshlarimiz hadis ilmidan bahramand bo'lmoqdalar.

Fevral, 2025-Yil

Imom Buxoriyning ma'naviy me'rosini butunlay yangi yo'nalishga burish, uning boy ma'naviy xazinasidagi insonparvarlik, bag'rikenglik, millatlararo do'stlik va ittifoqchilik, insof va diyonat, mehr va muruvvat, insoniy sha'n va oriyat, adolat va haqqoniyat, xolislik va samimiyat singari umuminsoniy g'oyalarini keng jamoatchilikka tanishtirish, hamda jahonning turli tillariga tarjima qilinib, butun insoniyat uchun xizmat qildirishga keng yo'l ochish eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Imom Buxoriy butun umri davomida islom dinining ma'rifiy mohiyatini ochishga, undagi bag'rikenglik, insonparvarlik va adolatparvarlik g'oyalarini targ'ib va tashviq qilish bilan shug'ullangan. Imom Buxoriyning ibratli hayot yo'li ham kishilarni jaholat yo'lidan qaytarishda ibrat timsoli bo'lishi mumkin. Uning ilmiy haqiqatlar yo'lida chekkan mashaqqatlari nafaqat musulmonlar uchun, balki har bir sog'lom aql egasi uchun insoniyatning farovon kelajagini bunyod etishda katta tajriba manbai bo'lishga arziydi.

Imom al-Buxoriyning eng mashhur asari, shubhasiz, "Al-Jome' as-Sahih" asaridir. "Al-Jome' as-Sahih" deb nomlangan 4 jildidan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to'plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir.

Bu asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham mashhur bo'lib, uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al - Buxoriy turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi. Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" hadis to'plamini o'rganish davomida, kitobda axloqiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy masalalar va ularning yechimlari bayon qilingan muborak hadislar ham o'z o'rnini topganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, g'iybat, chaqimchilik, gap tashish, hasad, arazlashish kabi salbiy illatlar va savdo-sotiq, zakot, yetimlar, qarindoshlar, yoshi ulug'larni hurmatlash kabi o'zaro muammolar yechimi bayon qilingan va bu masalalar hozirgi kunda inson ma'naviy olamiga qanchalik ta'sirini ko'rish mumkin.

Odob-axloq mamlakatimiz xalqlari madaniy hayotining ajralmas qismi, ezgu qadriyatlarimizdir. Odob-axloq o'ziga xos qonunlar, udum va an'analarga amal qiladi. Har bir fuqaro odob-axloqni ahamiyatini yaxshi anglab yetishi zarur. Bu mas'uliyat esa aql-idrok amriga rioya qilish, halollikni hayot qonuni deb bilish, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda odob-axloq munosabatini ham e'tiborda tutish, yuksak odob va madaniyat sohibi bo'lib yurtdoshlar diliga xushnudlik, yaxshi kayfiyat bag'ishlash, hamisha adolatli va haqgo'y, shirinso'z va muloyim, kamtar va saxovatli bo'lish, mahalla ahliga hech qachon ozor yetkazmaslik, g'iybat, hasad, tuhmat, chaqimchilik, manmanlik kabi illatlardan yiroq bo'lish, ichkilikbozlik va giyohvandlikdan hazar qilish singari xislatlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Fevral, 2025-Yil

Har bir ota-ona o'z farzandlarini odob-axloq ruhida tarbiyalab, avvalo odob-axloqqa o'rgatishi, salomlashishdan tortib kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatlariga amal qilishga, to'g'riso'z va muloyim, o'jizlarga madadkor, muhtojlar diliga malham bo'lish kabi ta'lim-tarbiyani berishi lozim. Ular voyaga yetganlarida halollik va mehnatsevarlik, odob va hayo, do'stlik va odamiylik, iymonlilik kabi insoniy fazilatlar bilan uyg'unlikda bo'lishi kerak.

Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi, balki hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodga ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtiradi, insonlarni bir - birlariga mehr-oqibatli bo'lishlariga, ota-ona va kattalarga doimo hurmatda, yetim-yesirlarga muruvvat, saxiylik, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'stona, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlarini ruhida tarbiyalaydi

Imom al - Buxoriy hadislarini, aql durdonalarini yoshlar tomonidan yanada ko'proq o'zlashtirilishi Yangi O'zbekiston ehtiyojlariga mos kelib axloqiy fazilatlarini o'rganish ya'ni ijtimoiy gumanitar fanlarini o'qitishda yoshlarga ajoyib ichki kechinmalar, his-tuyg'ular uyg'otadi.

Xulosa:

Imom Buxoriy butun hayoti davomida ilmiy xolislikka, samimiylikka, masalaga to'g'ridan-to'g'ri yondashish kabi tamoyillarga qat'iy rioya qilganligi, uning yozganlarining ishonarlilik va manbasini aniq ko'rsatishi jihatidan barcha allomalarning e'tibori va hurmatini qozongalligi sababli ham ming yil mobaynida o'z qiymatini saqlab kelmoqda.


Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabr kuni AQSHda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. // <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkatmirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch-Toshkent: Ma'naviyat, 2008

Fevral, 2025-Yil

3. Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
4. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Jome' as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik – Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999
5. Hayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati.- Toshkent, FAN, 1994.
6. Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent –2008, "Odob kitobi" 27-bob, 6011-hadis
7. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Science and Education, 3(10), 385-389.
8. Yunusovich, H. M. (2024). EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 129-132.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH